

OLIY TA'LIMDA ARALASH O'QITISH (BLENDED LEARNING) TIZIMINING ROLI

Talibjanova Aziza Lutfullayevna

O'zDJTU o'qituvchisi

talibjanovaaziza@gmail.com

Andaqulova Mohinur Jo'raqulovna

O'zDJTU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada effektli metodikalardan biri bo'lgan aralash o'qitish (blended learning) haqida tushuncha, uning tarixi va oliy ta'limdagi o'rni yoritilgan. Aralash o'qitish tizimi o'qituvchilarga dars materiallarini turli formatlarda o'quvchilarga taqdim etish imkonini beradi. Bu tizim oliy ta'limda yangi pedagogik rivojlanishlarga sabab bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: aralash o'qitish, metodologiya, onlayn ta'lim, an'anaviy o'qitish, tizim.

Annotation: This article discusses one of the effective methods, blended learning, including its definition, history, and role in higher education. The blended learning system allows the presentation of lesson materials to students in various formats. This system is leading to new pedagogical developments in higher education.

Key words: blended learning, methodology, online education, in person education, system.

Аннотация: В этой статье рассматривается один из эффективных методов – смешанное обучение (blended learning), включая его определение, историю и роль в высшем позволяет представлять учебные материалы студентам в различных форматах. Эта система способствует новым педагогическим развитиям в высшем образовании.

Ключевые слова: смешанное обучение, методология, онлайн образование, традиционное обучение, система.

Hozirgi kunga qadar ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida turlicha usulardan foydalanib kelingan. XIX asrda texnologiya rivoji masofaviy o'qitishni ta'lim sohasiga olib kirdi, XX asrda esa aralash o'qitish yuzaga kelib, ko'plab ta'lim muassasalarida qo'llana boshlandi. Aralash o'qitish (blended learning) metodikasi oliy ta'lim tizimini takomillashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu metodning rivojlanishi va ta'lim tizimida qo'llanishi ta'lim sohasidagi umumiy siyosatlar va qarorlar asosida amalga oshirilgan. "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to'g'risida", "Ta'limni raqamlashtirish dasturi" kabi farmonlar aralash o'qitish metodining oliy ta'limdagi ahamiyatini orttirmoqda. Aralash o'qitish

tizimi(blended learning) talabalarga an'anaviy o'qitish usullari va onlayn ta'limni birlashtirish orqali o'quv faoliyatidagi samaradorlikni oshirish uchun muhit yaratadi. Aralash o'qitish nima? Unga ko'p manbalarda turlicha ta'riflar berib o'tilgan. Grahamning aytishiga ko'ra "aralash o'qitish onlayn va an'anaviy ta'limning birlashmasi". Garrison va Kanuka esa bunday deydi : "aralash o'qitish - bu sinfda yuzma-yuz o'qish tajribalari bilan onlayn o'qish tajribalari maqsadli va o'ylangan tarzda integratsiya qilishdir".Aralash o'qitish metodi tarixi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Dastavval, undan biznes sohasida yaxshi kadr tayyorlash maqsadida foydalanilgan. 1990-yillarda internet va kompyuter texnologiyalari rivojlanishi sababli masofaviy ta'limdan foydalanish yo'lga qo'yildi. Oradan 10 yil o'tib, ya'ni 2000-yili onlayn va an'anaviy o'qitish usullari birlashib, aralash o'qitish(blended learning)ni vujudga keltirdi. 2010-yilda ta'lim tizimi, biznes, iqtisodiyot kabi bir qancha sohalarda keng ko'lamda yoyildi. 30%dan 79%gacha onlayn rejimda o'tkazilgan ta'lim - aralash ta'lim hisoblanadi.O'qituvchilar aralash o'qitish metodidan oliy ta'limda foydalanib kelmoqdalar. Dars jarayoni an'anaviy tarzda kechib, talabalarga video materiallar, testlar bilan ishlash uy vazifasi sifatida beriladi. Bu talabalarga mavzuni mustaqil tarzdaqayta o'zlashtirishga yordam beradi. Yoki aksincha, o'qituvchilar onlayn resurslar yoki ma'ruzalarni taqdim etishi orqali nazariy qismni uy vazifasi sifatida o'rgatadilarva dars mobaynida talabalar o'rgangan materiallarni muhokama qilishadilar, u bilan bog'liq muvaqqatlarini yechadilar.Aralash o'qitishdan foydalanishning yana bir usuli – bu talabalarning bilimini oshirish uchun onlayn kurslar yoki o'yinlar tashkil qilish. Oliy ta'limda hozirgi kunda aralash o'qitish metodlari rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib kelmoqda va uning roli quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Ijodiy fikrlash va interaktivlik . Dars jarayonlarida talabalarda mustaqil tarzda o'z ustlarida ishlash, savollar berish, shu bilan birga, forumlarda munozaralarga qo'shilish imkoniyatlari mavjud. Talabalar o'quv faoliyatlarini onlayn manbalar orqali interaktiv yo'l bilan boshqaradilar .

2. Moslashuvchanlik. Talabalar an'anaviy darslarda o'qituvchi bilan muloqotda bo'ladi, istalgan joy va vaqtda onlayn o'quv materiallari bilan tanishadilar. Bu ularda joy va vaqtga nisbatan moslashuvchanlik ko'nikmalarini shakllantiradi .

3. O'qitishning shaxsiylashtirilgan yondashuvi. Har bir talaba aralash o'qitish tizimi orqali o'z ehtiyojlariga muvofiq tarzda o'qish imkonini qo'lga kiritadi. O'quv materiallarini o'z xohishlariga ko'ra ko'rib chiqishlari, o'rganishlari mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish lozim, aralash o'qitish shunday tizimki, u masofaviy va an'anaviy ta'limni uyg'unlashtirgan holda talabalarning mukammal bilim olishini ta'minlaydi. Aralash o'qitish talabalarga sifatli ta'lim olishini va uning samaradorligini oshirmoqda. Talabalarga vaqt, joyga nisbatan moslashuvchanlik, o'quv faoliyatlariga o'z

qarashlari bilan yondashish, shuningdek, ijodiy fikrlash kabi bir qator asosiy jihatlarni rivojlantirish uchun zamin yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avazmatova Marhabo Muxtorjonovna, Significance Of Blended Learning In Education System. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x), 2020 | 507-511 pp
2. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. GOLDEN BRAIN, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
3. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management, 2(4), 352–360. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228>, <https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339>
4. Ko'makova Dilshoda Shirinqulovna. Ta'limda blended learning texnologiyasining joriy etilishi va samaradorligi. Topical issues of science.
5. Малинина И.А. Применение технологий смешанного обучения иностранному языку в высшей школе //Современные научные исследования и инновации. Mustafa Caner. The definition of blended learning in higher education. 2012. 16pp.